

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

TO‘QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATINI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA DOIR KECHIKTIRIB BO‘LMAYDIGAN CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq jahon iqtisodiy inqirozining to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishdagi salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida:

1. Belgilansinki:

mahalliy ishlab chiqarilgan bazaviy sifatdagi paxta tolasining boshlang‘ich narxi Nyu-York tovar birjasining eng yaqin yetkazib berish oyi uchun fyuchers kotirovkasi qiymatidan kelib chiqqan holda sotuvchi tomonidan belgilanadi;

mahalliy to‘qimachilik korxonalariga birja savdolarida 2020-yil 1-aprelga qadar milliy valyutada sotilgan paxta tolasi uchun yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirish muddati 90 kundan 150 kungacha uzaytiriladi.

2. **Ilovaga** muvofiq import qilinadigan xomashyo va materiallar 2022-yil 1-yanvarga qadar bojxona boji to‘lashdan ozod qilinsin.

3. Belgilansinki, 2020-yil 1-maydan 31-dekabrga qadar qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarishning soddalashtirilgan tartibi amal qiladi, unga binoan kalava va toladan tashqari, eksport qilinadigan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj tovarlari (xizmatlari) uchun foydalanilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonasining O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi hisob raqamiga kelib tushgan valyuta tushumi summasidan qat‘i nazar hisobga olinadi hamda eksport qiluvchining o‘rnatilgan tartibda beriladigan arizasiga asosan qaytarilishi shart.

Bunda, qo‘shilgan qiymat solig‘ining qaytarilgan summasi yoki uning bir qismi tovarlar eksport bojxona rejimi ostida chiqarilgan kundan e‘tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida valyuta tushumi yoki uning bir qismi eksport qiluvchining O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi hisob raqamiga kelib tushmagan taqdirda, shuningdek, arizada qaytarilishi ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi asoslantirilganligini kameral soliq tekshiruvidan o‘tkazish davomida aniqlangan g‘ayriqonuniy hisobga olingan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi 5 kun ichida penya hisoblangan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga qaytarilishi shart.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarishning mazkur band bilan belgilangan soddalashtirilgan tartibi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalariga ular tomonidan oxirgi 12 oy davomida tovarlar eksporti amalga oshirilgan, shuningdek, eksport qilingan tovarlar bo‘yicha 10 ming AQSh dollaridan ko‘p miqdorda muddati o‘tgan debitor qarzdorlik mavjud bo‘lmagan taqdirda tatbiq etiladi. Bunda, tovarlar eksport bojxona rejimi ostida chiqarilgan kundan e‘tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida valyuta tushumi eksport qiluvchining O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi hisob raqamiga kelib tushmagan taqdirda, debitor qarzdorlik muddati o‘tgan deb hisoblanadi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda quyidagilar bo‘yicha idoralararo ishchi guruhlarini tarkibini tasdiqlasin:

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining xomashyolari, materiallari, tayyor mahsulotlari, shuningdek, ishlab chiqarish xodimlarini tashish va logistika masalalarini tezkor hal etish — transport vaziri E. Ganiyev boshchiligida;

ishlab chiqarilayotgan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari tannarxini pasaytirish hamda raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish — moliya vaziri T. Ishmetov va Davlat soliq qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari M. Mirzayev boshchiligida;

yangi istiqbolli tashqi bozorlarni izlash, mahalliy to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportini rag‘batlantirish — investitsiyalar va tashqi savdo vazirining birinchi o‘rinbosari A. Voitov boshchiligida;

liboslar dizayni va kolleksiyalarini ishlab chiqish hamda ularni tarmoq korxonalariga joriy qilish — “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi raisi I. Xaydarov boshchiligida.

5. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi:

bir oy muddatda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini yetkazib berish bo‘yicha eksport shartnomalarini global karantin cheklovlari sharoitida bajarish istiqbollari nuqtai nazaridan batafsil o‘rgansin va istiqbolsiz eksport shartnomalari o‘rniga, birinchi navbatda, karantin chora-tadbirlari yumshatilayotgan davlatlardagi hamkorlar bilan yangi shartnomalar tuzishga har tomonlama yordam ko‘rsatsin;

ikki oy muddatda eksportga yo‘naltirilgan tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlariga ixtisoslashgan jahon brendlari vakillari bilan ushbu mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni tashkil etish va tayyor mahsulotlarni, shu jumladan respublikaning ishlab turgan korxonalari quvvatlarida tikish bo‘yicha yirik buyurtmalarni shakllantirish yuzasidan muzokaralar o‘tkazsin;

“O‘zstandart” agentligi bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar ko‘magida AQSh va Yevropada tan olingan zamonaviy xalqaro sertifikatlar tarmoq korxonalari tomonidan har yili tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha olinishini ta‘minlasin;

Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Koreya, Hindiston va boshqa davlatlardan tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasidagi yetakchi ekspertlarni mazkur sohani isloh qilish bo‘yicha maslahatchilar sifatida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari hisobidan jalb qilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi va tijorat banklari bilan birgalikda:

yirik to‘qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini ularning moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan stress-testdan o‘tkazsin;

stress-test natijalariga ko‘ra to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining unumdorligi, moliyaviy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha takliflarni hamda mahalliy to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini ta‘minlashni hisobga olgan holda tarmoqni rivojlantirish dasturini ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan kelishilgan holda ikki oy muddatda infratuzilma majmuasini (sertifikatlash, standartlashtirish, logistika va boshqalar) yaratishni hisobga olgan holda yirik hududiy to‘qimachilik-tikuvchilik klasterlarida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari chiqarish bo‘yicha eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni joylashtirish va ularni rivojlantirish yuzasidan takliflarni kiritsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 1-sentabrga qadar jahon brendlarini jalb qilgan holda tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, shu jumladan ularni yirik hududiy to‘qimachilik-tikuvchilik klasterlari hududida joylashtirish bo‘yicha 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya loyihalarini tasdiqlanishini ta‘minlasin.

Bunda har bir yangi tikuvchilik-to‘qimachilik ishlab chiqarishi, qoida tariqasida, mashhur xalqaro brendlar mahsulotlarini realizatsiya qilish va kamida mingta ish o‘rinini tashkil etishga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

8. Belgilansinki:

a) 2020 — 2025-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari, shuningdek, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 300 mln AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalari mablag‘lari, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati uchun ochilgan tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari qarz mablag‘lari va xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga, shu jumladan quyidagilar orqali moliyalashtiriladi:

yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish;

ikki-uch smenali ish rejimidagi ishlab chiqarish, eng avvalo, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini tikish faoliyati uchun revolver kreditlar taqdim etish;

mustahkam eksport shartnomalariga ega bo'lgan to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini eksportoldi moliyalashtirish hajmlarini kengaytirish;

Oldingi tahrirga qarang.

b) O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali paxta ip-kalavasi va trikotaj matoni (bo'yalgan trikotaj matodan tashqari) olib chiqishda 2021-yil 1-yanvardan boshlab olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,01 AQSh dollari, 2022-yil 1-yanvardan olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava va trikotaj mato uchun 0,05 AQSh dollari, 2023-yil 1-yanvardan — 0,1 AQSh dollari, 2025-yil 1-yanvardan — 0,2 AQSh dollari miqdorida yig'im undiriladi.

(8-bandning "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrda PF-14-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.11.2021-y., 06/21/14/1053-son)

9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda mahalliy korxonalardan 2020-yilda xarid qilinadigan quyidagi qo'shimcha hajmlar sotib olinishini ta'minlasin:

qariyalar uylariga yetkazib berish uchun kiyimlar va poyabzallar komplektlari, shuningdek, yolg'iz va kam ta'minlangan qariyalar uchun qishki kiyimlar va poyabzallar komplektlari;

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi xodimlari va harbiy xizmatchilari uchun formal kiyimlar va poyabzallar komplektlari;

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi muassasalari, kasalxonalar, bolalar bog'chalari, qariyalar uylari uchun choyshablar, to'shaklar, yostiqlar, o'rin yoping'ichlari va boshqa to'qimachilik mahsulotlari komplektlari;

davlat zaxirasi nomenklaturasi bo'yicha to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlari.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi:

ikki hafta muddatda o'z markaziy apparatlari tuzilmasida belgilangan shtat birliklari doirasida to'qimachilik sanoati masalalari bo'yicha tuzilmalarni tashkil etsin;

boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning butun davri (paxtani yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha) bo'yicha qo'shilgan qiymat zanjiri shakllanishini batafsil tahlil qilish asosida mahalliy tayyor mahsulotlarning eksport bozorlarida (shu jumladan, Yevropa Ittifoqi, Osiyo mamlakatlari va AQShda) raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining narx shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

12. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 5-may,
PF-5989-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son Farmoniga
ILOVA

Bojxona bojlarini to'lashdan ozod etiladigan import qilinadigan xomashyo va materiallar

RO'YXATI

T/r	Nomlanishi	TIF TN kodi
1.	Kimyoviy tarkibi aniq yoki noaniq sintetik organik bo'yovchi moddalar; ushbu guruhning 3-izohida ko'rsatilgan sintetik organik bo'yovchi moddalar asosida tayyorlangan preparatlar; optik oqartirgichlar yoki lyuminoforlar sifatida foydalaniladigan kimyoviy tarkibi aniq yoki noaniq sintetik organik mahsulotlar	3204
2.	Polipigment pastasi	3206 49 700 0
3.	Ushbu guruhning 4-izohida ko'rsatilgan akril va vinil polimerlar asosidagi eritmalar	3208 20 100 0
4.	Asosi sintetik polimerlar yoki kimyoviy modifikatsiyalangan tabiiy polimerlar bo'lgan, dispergirlangan yoki suvli muhitda eritilgan bo'yoqlar va laklar (shu jumladan, emal va polituralar)	320990000 0
5.	Oktat Kobalt tezlatkichi	3211 00000 0
6.	Suvsiz muhitda dispergirlangan, suyuq yoki pastasimon, bo'yoqlar (shu jumladan emal) ishlab chiqarishda foydalaniladigan bo'yoq moddalari (shu jumladan, metall kukunlari va parchalari); bezak folgasi; chakana savdo uchun muayyan shaklda yoki o'ramlarda qadoqlangan ranglar va boshqa bo'yovchi moddalar	3212
7.	To'qimachilik bo'yog'i	3215 90 000 0
8.	Sirti faol organik moddalar (sovundan tashqari); sirti faol vositalar, yuvish vositalari (shu jumladan yordamchi yuvish vositalari) va tarkibida sovun mavjud yoki mavjud bo'lmagan tozalash vositalari (tovar pozitsiyasi 3401 bo'lgan vositalardan tashqari)	3402 (3402 20900 0 dan tashqari)
9.	Moylash materiallari (shu jumladan kesuvchi asboblari uchun moylash-sovitish emulsiyalari, bolt yoki gaykalarni burashni yengillashtirish uchun vositalar, zangni ketkazish vositalari yoki korroziyaga qarshi vositalar va buyumlarni qolipdan chiqarishni osonlashtirish uchun moy asosida tayyorlanadigan preparatlar) hamda asosiy tarkibiy qismlarining 70 foiz va undan ko'p qismi neftdan yoki bitumli jinlardan olingan neft mahsulotlaridan iborat bo'lgan vositalardan tashqari, to'qimachilik matolari, charm, mo'yna yoki boshqa materiallarga yog' va moy bilan ishlov berish uchun foydalaniladigan vositalar	3403 (3403 99 000 0 dan tashqari)
10.	Sun'iy mum	3404 90000 9
11.	Tayyor yelimlar va boshqa joyda nomlanmagan yoki kiritilmagan boshqa tayyor adgezivlar	3506 91000 0, 3506 99 000 0
12.	Fermentlar, fermentli preparatlar	3507 90 900 0
13.	To'qimachilik bosmasi uchun universal diazotip fotoemulsiya	3707 10 000 0
14.	To'qimachilik tarmog'ida qo'llaniladigan pardozlash vositalari, bo'yashni tezlashtirish yoki bo'yoqlarni mustahkamlash vositalari va boshqa mahsulotlar hamda tayyor preparatlar (masalan, ishqorlash va ishlov berish uchun moddalar)	3809 91 000 0

T/r	Nomlanishi	TIF TN kodi
15.	Antidetonatorlar, antioksidanlar, smolani shakllantiruvchi ingibitorlar, quyultirgichlar, korroziyaga qarshi moddalar va neft mahsulotlari (shu jumladan benzin)ga yoki neft mahsulotlari kabi maqsadlarda foydalaniladigan ba'zi suyuqliklarga qo'shiladigan boshqa tayyor moddalar	3811 (3811 11 100 0 dan tashqari)
16.	To'qimachilik bosmasi uchun eritgich	3814 00 900 0
17.	Boshqa komponentlar bilan aralashtirilmagan polivinilxlorid (nomenklatura bo'yicha respublikada ishlab chiqarilmaydigan)	3904 10 000 9
18.	Polietilentereftalatdan plyonka	3920 62190 1
19.	Atsetat plyonkasi	3920 73800 0
20.	Silikonli lenta	3920 99280 0
21.	Ikki tomondan eni 25 mm.li plastmassa bilan qoplangan ensiz matodan neylonli lenta	3921 90550 0
22.	Tabiiy kauchukli, vulkanizatsiyalangan va vulkanizatsiyalanmagan lateks	4001 10 000 0
23.	To'qimachilik ishlab chiqarishi uchun vulkanizatsiyalangan rezinadan tayyorlangan iplar va pishiq ip (kord)	4007 00 000 0
24.	Bank lateks rezinkasi	4016 99 970 9
25.	To'qimachilik buyumlarini markirovka qilish uchun charmli jakronlar (leybllar)	4203 40000 0
26.	Boshqa yig'ilgan yaxlit tulki terisi, uning qismlari yoki qiyqimi	4302 30 459 0
27.	Sun'iy mo'yna	4304 00000 0
28.	Apparatda yigirilgan jun kalava ipidan yoki apparatda yigirilgan jonivorlarning ingichka sochidan tayyorlangan gazlamalar	5111 (5111 90 dan tashqari)
29.	Taroqda yigirilgan jun kalava ipidan yoki taroqda yigirilgan jonivorlarning ingichka sochidan tayyorlangan gazlamalar	5112
30.	Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki qadoqlanmagan, tikish uchun ishlatiladigan paxta iplar	5204 11 000 0
31.	Tarkibida paxta tolasi 85 foizdan kam bo'lgan, chakana savdo uchun qadoqlanmagan, taroqda taralmagan tolalardan tayyorlangan bir ipli yigirilgan paxta kalavasi (tikish uchun ishlatiladigan iplardan tashqari)	5206 11000 0 — 5206 15 000 0
32.	Tarkibida paxta tolasi 85 foizdan kam, asosan yoki faqat kimyoviy tolalar bilan qo'shilgan, sirtqi zichligi 200g/m kv.dan ortiq bo'lmagan ip gazlamalar	5210 (5210 11 000 0, 5210 19 000 0, 5210 49 000 0, 5210 59 000 0 dan tashqari)

T/r	Nomlanishi	TIF TN kodi
33.	Tarkibida paxta tolasi 85% dan kam, asosan yoki faqat kimyoviy tolalar bilan qo'shilgan, sirtqi zichligi 200g/m kv. dan ortiq bo'lgan ip gazlamalar	5211 (5211 51 000 0, 5211 52 000 0, 5211 59 000 0 dan tashqari)
34.	Boshqa turdagi paxtali gazlama	5212 (5212 11, 5212 21, 5212 22, 5212 25 dan tashqari)
35.	Zig'irpoya tolasidan to'qilgan gazlamalar	5309
36.	Kompleks sintetik iplardan to'qilgan, shu jumladan 5404-pozitsiyadagi (aramiddan tayyorlagan gazlamalar) tovar materiallardan tayyorlanadigangazlamalar	5407 10 001 0
37.	Bo'yalgan, tarkibida 85 foiz yoki undan ortiq teksturalashtirilgan poliefir iplari bo'lgan, kompleks iplardan to'qilgan matolar	5407 52 000 0
38.	Tarkibida teksturalashtirilmagan poliefir iplari 85 foiz yoki undan ortiq bo'lgan, sintetik kompleks iplardan to'qilgan, shu jumladan 5404-pozitsiyadagi tovar materiallardan tayyorlangan gazlamalar	5407 61 (5407 61100 0 dan tashqari)
39.	Tarkibidasintetik iplar 85 foiz yoki undan ortiq bo'lgan, sintetik kompleks iplardan to'qilgan, shu jumladan 5404-pozitsiyadagi tovar materiallardan tayyorlangan boshqa gazlamalar	5407 72 000 0, 5407 73 000 0, 5407 74 000 0
40.	Tarkibidasintetik iplar 85 foizdan kam bo'lgan, asosan yoki faqat paxta tolalari bilan qo'shilgan, kompleks sintetik iplardan to'qilgan, shu jumladan 5404-pozitsiyadagi tovar materiallardan tayyorlangan boshqa gazlamalar	5407 82 000 0, 5407 83 000 0, 5407 84 000 0
41.	Sintetik kompleks iplardan to'qilgan, shu jumladan 5404-pozitsiyadagi tovar materiallardan tayyorlangan boshqa gazlamalar	5407 92 000 0, 5407 93 000 0
42.	Tarkibida sun'iy ip, tekis yoki shunga o'xshash iplar 85 foiz yoki undan ortiq bo'lgan, sun'iy kompleks iplardan to'qilgan, shu jumladan 5404-pozitsiyadagi tovar materiallardan tayyorlangan boshqa gazlamalar	5408 22 900 0, 5408 23 000 0, 5408 24 000 0
43.	Sintetik toladan tayyorlangan, tarkibida poliefir tolalar 85 foiz yoki undan ortiq bo'lgan boshqa gazlamalar	5512 19 900 0
44.	Sintetik toladan tayyorlangan, tarkibidaushbu tolalar 85 foiz yoki undan ortiqbo'lgan boshqa gazlamalar	5512 99 100 0, 5512 99900 0
45.	Tarkibida ushbu tolalar 85 foizdan kam bo'lgan, asosan yoki faqat paxta tolalari bilan qo'shilgan, sirtqi zichligi 170 g/m kvdan ortiq bo'lmagan sintetik toladan to'qilgan gazlamalar	5513 11 200 0, 5513 21 000 0, 5513 29 000 0, 5513 39 000 0, 5513 41 000 0, 5513 49 000 0

T/r	Nomlanishi	TIF TN kodi
46.	Tarkibida ushbu tolalar 85 foizdan kam bo'lgan, asosan yoki faqat paxta tolalari bilan qo'shilgan, sirtqi zichligi 170 g/m kv ortiq bo'lgan sintetik toladan to'qilgan gazlamalar	5514 11 000 0, 5514 21 000 0, 5514 22 000 0, 5514 29 000 0, 5514 30 900 0, 5514 41 000 0, 5514 42 000 0
47.	Sintetik tolalardan tayyorlangan boshqa gazlamalar	5515 11 100 0, 5515 11 900 0, 5515 12 900 0, 5515 13 190 0, 5515 13 990 0, 5515 21 900 0, 5515 22 — 5515 99
48.	Sun'iy tolalardan tayyorlangan gazlamalar	5516 11 000 0, 5516 13 000 0, 5516 14 000 0, 5516 22 000 0
49.	Hayvonlar juni yoki ingichka tukidan to'qilgan, shimdirilgan yoki shimdirilmagan, qoplamali yoki qoplamasiz, dublirinlangan yoki dublirinlanmagan kigiz yoki fetr	5602 10 310 0
50.	Kimyoviy iplardan tayyorlangan, shimdirilgan yoki shimdirilmagan, qoplamali yoki qoplamasiz, dublirinlangan yoki dublirinlanmagan noto'qima gazlamalar	5603 11 — 5603 14 (5603 14100 dan tashqari)
51.	Kimyoviy iplardan tayyorlangan, tovar pozitsiyasi 5802 yoki 5806 bo'lgan matolardan tashqari, paxmoq gazlamalar va baxmal ipli gazlamalar	5801 32 000 0, 5801 37 000 0
52.	Kimyoviy iplardan to'rlar	5804 21 900 0
53.	Boshqa to'qimachilik materiallaridan to'qilgan to'rlar	5804 29 900 0
54.	Tovar pozitsiyasi 5807 bo'lgan buyumlardan tashqari ensiz gazlamalar; yelimlab biriktirilgan arqoq ipsiz ensiz gazlamalar (boldyuk)	5806 (5806 39 000 0, 5806 40 000 0 dan tashqari)
55.	Kimyoviy iplardan to'qilgan kashta	5810 92 900 0
56.	Kitob muqovalarini tayyorlashda yoki shunga o'xshash maqsadlarda foydalaniladigan, smolalangan yoki kraxmallangan to'qimachilik gazlamalari, kalka, rassomchilik uchun gruntlangan bo'z, shlyapalar qobirg'alari uchun bortovka va shunga o'xshash qattiq to'qimachilik materiallari	5901
57.	Shinalar uchun neylon yoki boshqa poliamid, poliefir yoki o'ta pishiq viskozali iplardan tayyorlangan kordli materiallar	5902 10 900 0, 5902 20 900 0

T/r	Nomlanishi	TIF TN kodi
58.	Tovar pozitsiyasi 5902 bo'lgan materiallardan tashqari, shimdirilgan, qoplangan yoki plastmassa bilan dublirinlangan to'qimachilik materiallari	5903 10 100 0, 5903 10 900 9, 5903 90
59.	Ushbu guruhning 7-izohida aytib o'tilgan texnik maqsadlar uchun to'qimachilik buyumlari va materiallari	5911 10 000 0, 5911 20 000 0, 5911 90
60.	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj paxmoq matolar, shu jumladan uzun tukli va paxmoq matolar	6001 22 000 0, 6001 91 000 0, 6001 92 000 0
61.	Sintetik iplardan to'qilgan, tovar pozitsiyasi 6001 yoki 6002 bo'lgan trikotaj matolardan tashqari, mashinada yoki qo'lda to'qilgan, eni 30 sm dan ortiq bo'lmagan trikotaj matolar	6003 30
62.	Sintetik iplardan to'qilgan, tovar pozitsiyasi 6001 — 6004 bo'lgan trikotaj matolardan tashqari, asosi to'qilgan matolar (shu jumladan, zar uqalar tayyorlash uchun trikotaj mashinalarda to'qilgan matolar)	6005 36, 6005 37 100 0, 6005 37 900 0, 6005 38 100 0, 6005 38 900 0
63.	Tovar pozitsiyasi 6001 — 6004 bo'lgan trikotaj matolardan tashqari, asosi to'qilgan boshqa matolar (shu jumladan, zar uqalar tayyorlash uchun trikotaj mashinalarda to'qilgan matolar)	6005 90
64.	Shisha iplar	7019 19 100 9

Izoh: import bojxona boji to'lovi bo'yicha imtiyozlar TIF TN kodlariga asosan taqdim etiladi.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2020-y., 06/20/5989/0533-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.11.2021-y., 06/21/14/1053-son)

УКАЗ
ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

О НЕОТЛОЖНЫХ МЕРАХ ПО ПОДДЕРЖКЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНО-ТРИКОТАЖНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

В целях смягчения негативного влияния мирового экономического кризиса в связи с пандемией коронавируса на развитие текстильной и швейно-трикотажной промышленности:

1. Установить, что:

стартовая цена хлопкового волокна отечественного производства базового качества определяется продавцом исходя из значения котировки фьючерса Нью-Йоркской товарной биржи на ближайший месяц поставки;

срок, в течение которого осуществляется проведение окончательных расчетов за хлопковое волокно, реализованное отечественным текстильным предприятиям на биржевых торгах за национальную валюту до 1 апреля 2020 года, продлевается с 90 до 150 дней.

2. Освободить сроком до 1 января 2022 года от уплаты таможенных пошлин импортируемые сырье и материалы согласно [приложению](#).

3. Определить, что с 1 мая по 31 декабря 2020 года действует упрощенный порядок возмещения налога на добавленную стоимость, согласно которому сумма налога на добавленную стоимость, подлежащая уплате (уплаченная) по фактически полученным товарам (услугам), использованным для экспортируемых текстильных и швейно-трикотажных товаров (услуг), за исключением пряжи и волокна, принимается к зачету вне зависимости от суммы валютной выручки, поступившей на счета предприятия текстильной и швейно-трикотажной промышленности в коммерческом банке Республики Узбекистан, и подлежит возврату на основании заявления экспортера, подаваемого в установленном порядке.

При этом возмещенная сумма налога на добавленную стоимость или ее часть, если валютная выручка или ее часть не поступают на счета экспортера в коммерческих банках Республики Узбекистан в течение ста восьмидесяти календарных дней со дня выпуска товаров под таможенный режим экспорта, а также сумма неправомерного зачета налога на добавленную стоимость, выявленная при проведении камеральной налоговой проверки обоснованности суммы налога на добавленную стоимость, заявленной к возмещению, подлежат возврату в Государственный бюджет Республики Узбекистан в течение 5 дней с начислением пени.

Упрощенный порядок возмещения налога на добавленную стоимость, установленный настоящим пунктом, распространяется на предприятия текстильной и швейно-трикотажной промышленности при условии осуществления ими экспорта товаров в течение последних 12 месяцев, а также отсутствия у них просроченной дебиторской задолженности по экспортированным товарам в размере более 10 тыс. долларов США. При этом дебиторская задолженность признается просроченной, если валютная выручка не поступает на счета экспортера в коммерческих банках Республики Узбекистан при истечении ста восьмидесяти календарных дней со дня выпуска товаров под таможенный режим экспорта.

4. Кабинету Министров Республики Узбекистан в двухнедельный срок утвердить составы межведомственных рабочих групп по:

оперативному решению вопросов логистики и транспортировки сырья, материалов, готовой продукции, а также производственного персонала предприятий текстильной и швейно-трикотажной промышленности — во главе с министром транспорта Э. Ганиевым;

выработке и реализации мер по снижению себестоимости и повышению конкурентоспособности производимой текстильной и швейно-трикотажной продукции — во главе с министром финансов Т. Ишметовым и первым заместителем председателя Государственного налогового комитета М. Мирзаевым;

поиску новых перспективных внешних рынков и стимулированию экспорта отечественной текстильной и швейно-трикотажной продукции — во главе с первым заместителем министра инвестиций и внешней торговли А. Воитовым;

разработке дизайна и коллекций одежды и их внедрению на предприятиях отрасли — во главе с председателем Ассоциации «Узтекстильпром» И. Хайдаровым.

5. Министерству инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан и Ассоциации «Узтекстильпром»:

в месячный срок провести детальное изучение экспортных контрактов на поставку текстильной и швейно-трикотажной продукции на предмет перспектив их исполнения в условиях глобальных карантинных ограничений и оказать всестороннее содействие в заключении новых экспортных контрактов взамен бесперспективных, в первую очередь с партнерами из стран, смягчающих карантинные меры;

в двухмесячный срок провести переговоры с представителями мировых брендов, специализирующихся на готовой экспортоориентированной швейно-трикотажной продукции, на предмет создания их производств в Республике Узбекистан и формирования крупных заказов на пошив готовой продукции, в том числе на мощностях действующих предприятий республики;

совместно с Агентством «Узстандарт» обеспечить при содействии международных организаций получение предприятиями отрасли современных международных сертификатов, признанных в США и Европе, по ежегодно утверждаемым перечням;

совместно с Министерством иностранных дел привлечь ведущих экспертов в сфере производства швейно-трикотажных изделий из стран Европейского Союза, Турции, Кореи, Индии и других стран в качестве советников по реформированию данной сферы за счет средств Агентства по продвижению экспорта при Министерстве инвестиций и внешней торговли.

6. Министерству экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан совместно с Ассоциацией «Узтекстильпром» и коммерческими банками:

провести стресс-тесты деятельности крупных предприятий текстильной промышленности на предмет их финансовой устойчивости;

по результатам стресс-тестирования разработать и внести в Кабинет Министров Республики Узбекистан предложения по повышению производительности, финансовой эффективности и конкурентоспособности предприятий текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также программу развития отрасли с учетом обеспечения конкурентоспособности отечественной текстильной и швейно-трикотажной промышленности;

по согласованию с Министерством инвестиций и внешней торговли в двухмесячный срок внести предложения по развитию крупных региональных текстильно-швейных кластеров с размещением в них экспортоориентированных производств по выпуску готовой швейно-трикотажной продукции с учетом создания комплекса инфраструктуры (сертификация, стандартизация, логистика и др.).

7. Кабинету Министров Республики Узбекистан до 1 сентября 2020 года обеспечить утверждение инвестиционных проектов по созданию, в том числе размещению на территории крупных региональных текстильно-швейных кластеров, производств по выпуску готовой швейно-трикотажной продукции и полуфабрикатов, востребованных на внешних рынках, с высокой добавленной стоимостью и привлечением мировых брендов на 2021 — 2025 годы.

При этом каждое новое швейно-трикотажное производство должно быть ориентировано, как правило, на реализацию продукции известных международных брендов и создание не менее тысячи рабочих мест.

8. Установить, что:

а) инвестиционные проекты, реализуемые в 2020 — 2025 годах, а также обеспечение оборотными средствами текстильных и швейно-трикотажных предприятий, финансируются за счет средств кредитных линий Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан в

размере 300 млн долларов США, кредитов коммерческих банков, заёмных средств международных финансовых институтов и кредитных линий зарубежных банков, открытых для текстильной и швейно-трикотажной промышленности, в том числе путем:

финансирования новых инвестиционных проектов;

предоставления револьверных кредитов на производственную деятельность в режиме двух-трехсменной работы, прежде всего по пошиву готовой швейно-трикотажной продукции;

расширения объемов предэкспортного финансирования предприятий текстильной и швейно-трикотажной промышленности, имеющих твердые экспортные контракты;

См. предыдущую редакцию.

б) при вывозе хлопчатобумажной пряжи и трикотажного полотна (кроме крашеного трикотажного полотна) через таможенную границу Республики Узбекистан с 1 января 2021 года взимается сбор за каждый килограмм вывозимой пряжи в размере 0,01 доллара США, с 1 января 2022 года за каждый килограмм вывозимой пряжи и трикотажного полотна — 0,05 доллара США, с 1 января 2023 года — 0,1 доллара США, с 1 января 2025 года — 0,2 доллара США.

(подпункт «б» пункта 8 в редакции Указа Президента Республики Узбекистан от 16 ноября 2021 года № УП-14 — Национальная база данных законодательства, 17.11.2021 г., № 06/21/14/1053)

9. Министерству экономического развития и сокращения бедности, Министерству финансов, Комитету по управлению государственными резервами Республики Узбекистан совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами в месячный срок обеспечить закупку у отечественных предприятий дополнительных объемов на приобретение в 2020 году:

комплектов одежды и обуви для поставки в дома престарелых, а также комплектов зимней одежды и обуви для одиноких и малообеспеченных престарелых граждан;

комплектов форменной одежды и обуви для сотрудников и военнослужащих системы Министерства обороны, Министерства внутренних дел и Министерства по чрезвычайным ситуациям;

комплектов постельного белья, матрацев, подушек, покрывал и других текстильных принадлежностей для больничных учреждений, детских садов, домов престарелых, учреждений Министерства обороны, Министерства внутренних дел и Министерства по чрезвычайным ситуациям;

изделий текстильной и швейно-трикотажной промышленности по номенклатуре государственного резерва.

10. Министерству финансов и Министерству экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан:

в двухнедельный срок создать в структурах центральных аппаратов в пределах установленной штатной численности подразделения по вопросам текстильной промышленности;

совместно с другими заинтересованными министерствами и ведомствами в двухмесячный срок на основе детального анализа формирования цепочки добавленной стоимости по всему циклу производства текстильной и швейно-трикотажной продукции (от выращивания хлопка до выпуска готовых изделий) внести в Кабинет Министров Республики Узбекистан предложения по совершенствованию механизмов ценообразования предприятий текстильной и швейно-трикотажной промышленности, обеспечивающих конкурентоспособность отечественной готовой продукции на экспортных рынках (в том числе в странах Европейского союза, Азии и США).

11. Министерству экономического развития и сокращения бедности совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами в месячный срок внести в Кабинет Министров Республики Узбекистан предложения об изменениях и дополнениях в законодательство, вытекающих из настоящего Указа.

12. Контроль за исполнением настоящего Указа возложить на Премьер-министра Республики Узбекистан А.Н. Арипова и руководителя Администрации Президента Республики Узбекистан З.Ш. Низомиддинова.

Президент Республики Узбекистан Ш. МИРЗИЁЕВ

г. Ташкент,
5 мая 2020 г.,
№ УП-5989

ПРИЛОЖЕНИЕ

к Указу Президента Республики Узбекистан от 5 мая 2020 года № УП-5989

ПЕРЕЧЕНЬ

импортируемого сырья и материалов, освобождаемых от уплаты таможенных пошлин

№	Наименование	Код ТН ВЭД
1.	Органические красящие вещества синтетические, определенного или неопределенного химического состава; препараты, изготовленные на основе синтетических органических красящих веществ, указанные в примечании 3 к данной группе; синтетические органические продукты, используемые в качестве оптических отбеливателей или люминофоров, определенного или неопределенного химического состава	3204
2.	Полипигментная паста	3206 49 700 0
3.	Растворы, указанные в примечании 4 к данной группе, на основе акриловых или виниловых полимеров	3208 20 100 0
4.	Краски и лаки (включая эмали и политуры) на основе синтетических полимеров или химически модифицированных природных полимеров, диспергированные или растворенные в водной среде, прочие	320990000 0
5.	Ускоритель Октад Кобальта	3211 00000 0
6.	Пигменты (включая металлические порошки и хлопья), диспергированные в неводных средах, жидкие или пастообразные, используемые при производстве красок (включая эмали); фольга для тиснения; красители и прочие красящие вещества, расфасованные в формы или упаковки для розничной продажи	3212
7.	Текстильная краска	3215 90 000 0
8.	Вещества поверхностно-активные органические (кроме мыла); поверхностно-активные средства, моющие средства (включая вспомогательные моющие средства) и средства чистящие, содержащие или не содержащие мыло (кроме средств товарной позиции 3401)	3402 (кроме 3402 20900 0)
9.	Материалы смазочные (включая смазочно-охлаждающие эмульсии для режущих инструментов, средства для облегчения вывинчивания болтов или гаек, средства для удаления ржавчины или антикоррозионные средства и препараты для облегчения выемки изделий из форм, изготовленные на основе смазок) и средства, используемые для масляной или жировой обработки текстильных материалов, кожи, меха или прочих материалов, кроме средств, содержащих в качестве основных компонентов 70	3403 (кроме 3403 99 000 0)

№	Наименование	Код ТН ВЭД
	мас.% или более нефти или нефтепродуктов, полученных из битуминозных пород	
10.	Воск искусственный	3404 90000 9
11.	Готовые клеи и прочие готовые адгезивы, в другом месте не поименованные или не включенные	3506 91000 0, 3506 99 000 0
12.	Ферменты, ферментные препараты	3507 90 900 0
13.	Универсальная diaзотипная фотоэмульсия для текстильной печати	3707 10 000 0
14.	Средства отделочные, средства для ускорения крашения или фиксации красителей и продукты прочие и готовые препараты (например, вещества для обработки и протравы), применяемые в текстильной отрасли	3809 91 000 0
15.	Антидетонаторы, антиоксиданты, ингибиторы смолообразования, загустители, антикоррозионные вещества и присадки готовые прочие к нефтепродуктам (включая бензин) или другим жидкостям, используемым в тех же целях, что и нефтепродукты	3811 (кроме 3811 11 100 0)
16.	Разбавитель для текстильной печати	3814 00 900 0
17.	Поливинилхлорид, не смешанный с другими компонентами (по номенклатуре, не производимой в республике)	3904 10 000 9
18.	Пленка из полиэтилентерефталата	3920 62190 1
19.	Пленка ацетатная	3920 73800 0
20.	Силиконовая лента	3920 99280 0
21.	Лента нейлоновая из узкой ткани, с пластмассовым покрытием с двух сторон, шириной 25 мм	3921 90550 0
22.	Латекс каучуковый натуральный, подвулканизированный или неподвулканизированный	4001 10 000 0
23.	Вулканизированные резиновые нити и корд для текстильного производства	4007 00 000 0
24.	Резинка латексная банковская	4016 99 970 9
25.	Жакроны (лейблы) кожаные для маркировки текстильных изделий	4203 40000 0
26.	Прочие шкурки лисицы целые и их части или лоскуты, собранные	4302 30 459 0
27.	Мех искусственный	4304 00000 0
28.	Ткани из шерстяной пряжи аппаратного прядения или пряжи аппаратного прядения из тонкого волоса животных	5111 (кроме 5111 90)
29.	Ткани из шерстяной пряжи гребенного прядения или пряжи гребенного прядения из тонкого волоса животных	5112

№	Наименование	Код ТН ВЭД
30.	Нитки хлопчатобумажные швейные, расфасованные или не расфасованные для розничной продажи	5204 11 000 0
31.	Пряжа хлопчатобумажная (кроме швейных ниток), содержащая менее 85 мас.% хлопковых волокон, не расфасованная для розничной продажи, однониточная из волокон, не подвергнутых гребнечесанию	5206 11000 0 — 5206 15 000 0
32.	Ткани хлопчатобумажные, содержащие менее 85 мас.% хлопковых волокон, смешанные в основном или исключительно с химическими волокнами, с поверхностной плотностью не более 200 г/кв. м	5210 (кроме 5210 11 000 0, 5210 19 000 0, 5210 49 000 0, 5210 59 000 0)
33.	Ткани хлопчатобумажные, содержащие менее 85 мас.% хлопковых волокон, смешанные в основном или исключительно с химическими волокнами, с поверхностной плотностью более 200 г/кв. м	5211 (кроме 5211 51 000 0, 5211 52 000 0, 5211 59 000 0)
34.	Ткани хлопчатобумажные прочие	5212 (кроме 5212 11, 5212 21, 5212 22, 5212 25)
35.	Ткани льняные	5309
36.	Ткани из синтетических комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые из материалов товарной позиции 5404 (ткани из арамидов)	5407 10 001 0
37.	Ткани из комплексных нитей, содержащие 85% и?и более текстурированных полиэфирных нитей, окрашенные	5407 52 000 0
38.	Ткани из синтетических комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые из материалов товарной позиции 5404, содержащие 85 мас.% или более нетекстурированных полиэфирных нитей	5407 61 (кроме 5407 61100 0)
39.	Ткани из синтетических комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые из материалов товарной позиции 5404, содержащие 85 мас.% или более синтетических нитей, прочие	5407 72 000 0, 5407 73 000 0, 5407 74 000 0
40.	Ткани из синтетических комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые из материалов товарной позиции 5404, содержащие менее 85 мас.% синтетических нитей, смешанные в основном или исключительно с хлопковыми волокнами, прочие	5407 82 000 0, 5407 83 000 0, 5407 84 000 0
41.	Ткани из синтетических комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые из материалов товарной позиции 5404, прочие	5407 92 000 0, 5407 93 000 0
42.	Ткани из искусственных комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые из материалов товарной позиции 5405, содержащие 85 мас.% или более искусственных нитей или плоских или аналогичных нитей, прочие	5408 22 900 0, 5408 23 000 0, 5408 24 000 0

№	Наименование	Код ТН ВЭД
43.	Ткани из синтетических волокон, содержащие 85 мас.% или более полиэфирных волокон, прочие	5512 19 900 0
44.	Ткани из синтетических волокон, содержащие 85 мас.% или более этих волокон, прочие	5512 99 100 0, 5512 99900 0
45.	Ткани из синтетических волокон, содержащие менее 85 мас.% этих волокон, смешанные в основном или исключительно с хлопковыми волокнами, имеющие поверхностную плотность не более 170 г/кв. м	5513 11 200 0, 5513 21 000 0, 5513 29 000 0, 5513 39 000 0, 5513 41 000 0, 5513 49 000 0
46.	Ткани из синтетических волокон, содержащие менее 85 мас.% этих волокон, смешанные в основном или исключительно с хлопковыми волокнами, имеющие поверхностную плотность более 170 г/кв. м	5514 11 000 0, 5514 21 000 0, 5514 22 000 0, 5514 29 000 0, 5514 30 900 0, 5514 41 000 0, 5514 42 000 0
47.	Ткани из синтетических волокон прочие	5515 11 100 0, 5515 11 900 0, 5515 12 900 0, 5515 13 190 0, 5515 13 990 0, 5515 21 900 0, 5515 22 — 5515 99
48.	Ткани из искусственных волокон	5516 11 000 0, 5516 13 000 0, 5516 14 000 0, 5516 22 000 0
49.	Войлок или фетр, пропитанные или непропитанные, с покрытием или без покрытия, дублированные или недублированные, из шерсти или тонкого волоса животных	5602 10 310 0
50.	Нетканые материалы, пропитанные или непропитанные, с покрытием или без покрытия, дублированные или недублированные из химических нитей	5603 11 — 5603 14 (кроме 5603 14 100)
51.	Ткани ворсовые и ткани из синели, кроме тканей товарной позиции 5802 или 5806 из химических нитей	5801 32 000 0, 5801 37 000 0
52.	Кружева из химических нитей	5804 21 900 0
53.	Кружева из прочих текстильных материалов	5804 29 900 0
54.	Узкие ткани, кроме изделий товарной позиции 5807; узкие ткани безуточные, скрепленные склеиванием (болдюк)	5806 (кроме 5806 39 000 0, 5806 40 000 0)
55.	Вышивка из химических нитей	5810 92 900 0

№	Наименование	Код ТН ВЭД
56.	Текстильные материалы, просмоленные или накрахмаленные, используемые для изготовления книжных переплетов или аналогичных целей, калька, загрунтованный холст для живописи, бортовка и аналогичные жесткие текстильные материалы для каркасов шляп	5901
57.	Материалы, кордные для шин из нейлоновых или прочих полиамидных, полиэфирных или вискозных нитей высокой прочности	5902 10 900 0, 5902 20 900 0
58.	Текстильные материалы, пропитанные, с покрытием или дублированные пластмассами, кроме материалов товарной позиции 5902	5903 10 100 0, 5903 10 900 9, 5903 90
59.	Текстильные материалы и изделия для технических целей, упомянутые в примечании 7 к данной группе	5911 10 000 0, 5911 20 000 0, 5911 90
60.	Ворсовые полотна, трикотажные машинного или ручного вязания, включая длинноворсовые полотна и махровые полотна	6001 22 000 0, 6001 91 000 0, 6001 92 000 0
61.	Трикотажные полотна машинного или ручного вязания шириной не более 30 см, кроме трикотажных полотен товарной позиции 6001 или 6002 из синтетических нитей	6003 30
62.	Полотна основовязанные (включая вязанные на трикотажных машинах для изготовления галунов), кроме трикотажных полотен товарных позиций 6001 — 6004 из синтетических нитей	6005 36, 6005 37 100 0, 6005 37 900 0, 6005 38 100 0, 6005 38 900 0
63.	Полотна основовязанные (включая вязанные на трикотажных машинах для изготовления галунов), кроме трикотажных полотен товарных позиций 6001 — 6004, прочие	6005 90
64.	Нить стеклянная	7019 19 100 9

Примечание: льготы по уплате импортной таможенной пошлины предоставляются на основании кодов ТН ВЭД.

(Национальная база данных законодательства, 06.05.2020 г., № 06/20/5989/0533; 17.11.2021 г., № 06/21/14/1053)